



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

SINONIM VA ANTONIMLAR LINGVOPOETIK VOSITA SIFATIDA

Lafasov Urak Pazilovich

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, dotsent

Annotatsiya

Maqolada Abdulla Qodiriy romanlarida sinonim va antonimlarning lingvopoetik vosita sifatidagi ahamiyati tahlil qilingan. Adib o'zbek tilining boy lug'at xazinasidan unumli foydalanib, obrazlar nutqining ta'sirchanligi va badiiyligini kuchaytirgan. Tadqiqotda sinonim va antonimlar so'z turkumlari asosida o'rganilib, milliy tilning o'ziga xos jozibasi dalillar bilan yoritilgan.

Kalit so'zlar: sinonimlar, antonimlar, Abdulla Qodiriy, lingvopoetik vosita, leksema, ohoriy, o'zbek tili.

СИНОНИМЫ И АНТОНИМЫ КАК ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА

Лафасов Урак Пазилевич

Узбекский государственный университет мировых языков, доцент

Аннотация

В статье анализируется роль синонимов и антонимов как лингвопоэтических средств в романах Абдуллы Кадыри. Писатель мастерски использовал богатый словарный запас узбекского языка для усиления художественной выразительности и эмоционального воздействия. Синонимы и антонимы исследуются по частям речи, раскрывая своеобразие и привлекательность национального языка.

Ключевые слова: синонимы, антонимы, Абдулла Кадыри, лингвопоэтическое средство, лексема, оригинальность, узбекский язык.

SYNONYMS AND ANTONYMS AS LINGUOPOETIC MEANS

Lafasov Urak Pazilovich

Uzbekistan State World Languages University, Associate Professor

Abstract

The article analyzes the role of synonyms and antonyms as linguopoetic devices in Abdulla Qodiriy's novels. The writer skillfully used the rich vocabulary of the Uzbek language to enhance artistic expression and emotional impact. Synonyms and antonyms are examined by parts of speech, revealing the unique charm of the national language.

Keywords: synonyms, antonyms, Abdulla Qodiriy, linguopoetic means, lexeme, ahorian, Uzbek language.

Abdulla Qodiriy lug'aviy birliklardan lingvopoetik vosita sifatida foydalanar ekan, ularni o'z o'rnida, beqiyos shaklda qo'llagan. Har qanday milliy tildagi ta'sirli va hayotiy jarayonlar leksemalar orqali yuzaga chiqadi. Buning uchun ijodkor lug'aviy birliklardagi serqirra ma'nolarni kitobxonga aniq ko'rsatib bera olishi lozim bo'ladi. Adib ushbu holatlarni berishda so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlaridan ko'p foydalangan[1;537-549-b.].

Sinonimlar ma'no qirralari bir-biriga yaqin har xil shaklga ega leksemalardir. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning quyidagi baytlarida o'zbeklar, ularning muomala madaniyatiga aloqador qadimiy sinonimlar qo'llangan[2; 3-6.]:

Shohu toju xil'atikim, men tamosho qilg'ali, O'zbekim boshida qalpoq, egnida shirdog'i bas. Halol ona sutidekdur o'zbekim tutsa, Tabuq qilib yukunib tustig'on ichinda qimiz.

Abdulla Qodiriy ham o'z romanida o'zbek millatiga mansub kishilar o'zaro bir-biri bilan munosabatda qo'llaydigan birliklarga jiddiy e'tibor qaratgan. M.: Gulshan bosh bukib qulluq qildi [4; 492-b.].

O'zbek tilining boy so'z xazinasida ohoriy sinonim (ma'nodosh so'z)lar ko'p, ammo ularni izlab topish esa mashaqqatli mehnat hisoblanadi. So'z ustasi ushbu sharaflı yumushdan erinmagan va ularni izlab topgan. O'z navbatida yozuvchi ushbu leksemalarni o'z o'rnida va voqelikka mos lingvopoetik vosita sifatida qo'llay olgan. Mazkur lug'aviy birliklarni so'z turkumlari bo'yicha ajratib tadqiq qilishni lozim topdik.

1. Ot leksemalarning ifoda ko'lamı quyidagicha:

- 1) voqelikka mos ma'nodosh ifoda otlari tanlagan. M.: Mana shuning daldasida havasimda jasorat etdim, havaskorlik orqasida kechaturgan qusur va xatolardan cho'chib turmadim [8;6-b.];
- 2) maqsadga mos ma'nodosh vaqt otlaridan foydalanilgan. M.: Shunga ko'ra mavzu'ni moziydan, yaqin o'tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo'lg'an keyingi "xon zamonlari" dan belguladim ;
- 3) millat dunyoqarashiga oid ma'nodosh tegishlilik otlarini ishlatgan. M.: Bu to'g'rida uylanmoqchiyigit bilan er qilg'uchi qizning lom-mim deyishka haq va ixtiyorlari bo'lmay, bu odatimiz ma'qul va mashru' ishlardan emasdir [8; 11-b.];
- 4) qahramonning fikrlash darajasiga mos ma'nodosh etnonimlarni qo'llagan. M.: – Andi... andi... o'zi xitoymi, nima balo... o'zi qalmoqdan tarqag'an bo'ladir... Tushunmagan bo'lsang, lo'lilarning bir toyifasi... [8; 135-b.] ;
- 5) o'zbek milliy tilining so'zlashuv lahjasiga mos ma'nodosh nutqiy etiketlardan foydalangan. M.: ... o'z umrida birinchi martaba Anvarning hurmatiga o'rnidan turdi. – Muborak, muborak! Borakallo, mirzo Anvar! – dedi . – Qutlug', taqsir, qani, marhamat qilsinlar (460-bet). – Esonmisiz? Munsak muborak, ayamlar sog'mi? [8; 494-b.]– Gulshanjon, Gulshanjon! Esonmisiz, omonmisiz? Sarpa qutlug'!;
- 6) milliy tilimizga xos ma'nodosh o'z va o'zlashma jins otlarini ishlatgan. M.: Tanisalarinigaz kerak, o'rgulay, men mirzo Sultonaning ko'chlari bo'laman. [8; 577-578-b.]. Xotindan bu so'zni eshitib Nigor oyim achinish va uyalish vaziyatiga kirdi.Biz, o'zimizning bu kelishimizda sizning uchun dunyoga orzug'ulik bir o'g'ul hadiya etkanimizdek, insho'lloh, qaytishimizda ham Otabek uchun mujassamai iffat bo'lg'an bir rafiqa tuhfa qilarmiz ;
- 7) ona tilimizdagi ma'nodosh tasvir otlaridan o'rinli foydalangan. M.: Shu husning, shu malohating va shu latofating bilan tamom meniki bo'larsan, shundaymi? ;
- 8) o'zbek tilidagi ma'nodosh qarindoshlik bildiruvchi nomlarni ham mohirona qo'llagan [5; 11-b.]. M.: Anvarning andishasini rad qilib: "Har qancha bersang ham dadasi ola beradir . – Ma'lumingiz, kechalari bo'sh bo'laman, shuning bilan birga otangiz qaysi vaqtni ixtiyor qilsalar ijobat etishdan o'zga choram bo'lmas ;
- 9) kishilar orasida dili yaqinlikni bildiruvchi ma'nodosh otlarni ham o'rinli ishlatgan. M.: Bu yoshning samimiy chin do'stlig'i va o'rtog'ig'a sadoqati har kimni taajjubka qo'ydi ;
- 10) hayotda yomon odamlar jinoyati uchun olishi muqarrar tuhfasini aks ettiruvchi ma'nodosh otlardan ham foydalangan. M.: – Jon va oilangiz dushmani bo'lg'an bir badbaxt endi o'z qilmishining jazasini ko'rdi, burodamir Otabek ularning totiqqlarini xo'b boblab berdi, – dedi usta Alim [8; 258-b.];
- 11) jamiyatda uchraydigan tabaqaviy bo'lishlarga aloqador nomlarning ma'nodoshlarini zukkolik bilan qo'llagan. M.: Uyg'urlar bizdagi "xonim, bekach" deyish o'rnida "og'acha" deydirlar. Haram darbozasidan yurg'uchilar yolg'iz xonning o'g'li – shahzoda, xonning xotin qarindoshlari, kanizlar, doya xotinlar, yana ba'zi "maxsus" yumishlarga xon tomonidan belgilangan zaifalargina edilar . Ichkari tarafdin keksa bir xodima – eshik ochar xola ko'rinib, Gulshanga salom berdi va "xush keldilar" dedi;
- 12) jamiyatdagi tubsiz nizolarning sababchisi bo'lgan yaramas shaxslarning sajjiyasini ochish uchun ma'nodosh otlarni ishlatgan. M.: Xoin ila sotilg'an ko'zlar to'qnashdilar, bir-birisidan ma'no olishdilar va oraga bir necha daqiqa so'zsizlik, jimjitlik kirdi;
- 13) o'sha davrda el orasidagi kundalik xayot uchun muhim bo'lgan ma'nodosh mansab nomlaridan foydalangan. M.: – Bosh munshiylik lavozimoti borasidagi fikringiz darhaqiqat to'g'ri, – dedi, – ammo mirzo Anvarning uhda qila olishi muhaqqaqdir. – Men bu jigitni mirzaboshi qilmaqchi bo'ldim, – dedi xon va tizasi tegidan bir qog'oz olib, domla Niyozg'a uzatti, – uqung', domla (450-bet). Sarmunshiy – demak, agarchi soqoli ko'ksini tutqan Shahodat mufti kabilarning bo'lsa ham xo'jasidir. Ul bo'lsa madrasa ko'rmasdan mirzalarning mirzasi bo'lmoqchi; xudoy bersa shunday, taqsir. – Xon janobning munshiylar munshiysi bo'lg'an bir yigitning salobati borlig'ini kim inkor etsin;
- 14) o'sha davrdagi ayollar muloqotida muhim bo'lgan ma'nodoshlarni qo'llagan. M.: – Cho'ringiz so'z ulashdirishni yomon ko'radir, oyi xonim. – Albatta, shunday bo'lmog'i lozim, – dedi Og'acha oyim, – o'zgalardan ham sizga aytkulugi yo'q, Gulshan. Xotinlar maxdum domlaning ba'zi qiliqlaridan kulishsalar ham Nigor oyimning orqasidan g'iybat so'zlamaslar;
- 15) kundalik muloqotda faol qo'llanadigan ma'nodosh otlarni ishlatgan. M.: – Gap shunday bo'lsa, ikkimizning bu ishka ko'maklashuvimiz yoki sukut qilishimiz davlatxohliq emas, dushmanlikdir, – dedi Og'acha oyim. Muhtojlikdan qo'rqsangiz men bor, men sizga qo'limdan kelgan yordamni qilarman. Ma'qulmi, Gulshanbonu?! ;
- 16) ijtimoiy tuzumning tanazzuliga sabab bo'lgan holatlarni ifodalashda ham ma'nodosh otlardan foydalangan. M.: Bu qizlar mamlakatning har tarafidagi beklardan xong'a hadya tariqasida yuborilg'anlar,

shuning uchun ular terma do'ndiqlar edilar . Qizidan boshqa mol topolmay, uch yillik soliq badaliga Nazmini tutib, Xudoyorg'a tortiq qilg'anlar ;

17) o'Ichov birligi sifatida qo'llanadigan ma'nodosh otlarni ham o'z o'rnida qo'llagan. M.: Ish kutkancha chiqmadi, deb afsus qildim, chunki darbozadan o'n adim ichkariga kirgan edik, darboza yopilmasdan yana orqamga qayrildim (504-bet). O'zimdan besh qadam narida tushkan ro'yomolimni boyag'i yigit engashib yerdan olar edi ;

18) o'zbeklardagi ovqatlanishga tegishli ma'nodoshlardan foydalangan. M.: Saroy ahli kunduzgi ish kuchlaridan bo'shab hujralariga qaytqanlar, ko'b hujralar kechlik osh pishirish ila mashg'ul . Maxdum kechki osh pishirish bilan mashg'ul Nigor oyimdan taomning tayyor bo'lish vaqtini so'rab, Anvarni o'z yonig'a chaqirdi ;

19) san'atga oshno bo'lgan o'zbek xalqining musiqiy tabiatiga xos ma'nodosh terminlarni qo'llagan. M.: Shu holda nimsufalarning biridan chalg'ular tovshi keldi. Sozlar nafis va ohangdor qilib "Sarbozcha" kuyini chaldilar ;

20) har bir jamiyatda davlat muhofazasi muhim sanalganligini tushungan holda ag'yor leksemasining ma'nodoshlarini ishlatgan. M.: Davlatingiz, shavkatingiz dushmanlar ko'rsin! Qalqon ushlab, xanjar taqqan yovlar maydonga!;

21) asar voqyeligiga mos ma'nodosh mifonimlardan foydalangan. M.: Shu vaqt tasodifan nima yumish bilandir mehmonxonadan chiqib kelguchi farishtaga ko'zi tushdi. Mana, majlis a'zolari shunaqangi bir-biravidan o'toq malaklar, parilar edilar, yel bilan o'ynashib yong'an sham' nuri qizlarni allaqanday ajib holatka qo'yomoqda, majlis ersa "Alif laylo" hikoyalaridagi "parilar" bazmini xotirlatmoqda edi .

Adib o'z romanlarida betakror va serqirra sinonim otlardan unumli foydalangan.

2. Sifat leksemalarning ifoda ko'lami quyidagicha:

1) asar voqyealariga asos qilib olingan davrni ta'riflashda ham ma'nodoshlardan foydalangan. M.: Shunga ko'ra mavzu'ni moziydan, yaqin o'tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo'lg'an keyingi "xon zamonlari" dan belguladim;

2) o'zbek qizlariga xos husn-latofatni ta'riflashda ham o'z va o'zlashma ma'nodoshlardan foydalangan. M.: Otabekning ko'nglini o'sha go'zal marg'ilonliqdan sovitish yo'lida undan ham ko'hlik, undan ham suluv qiz topish ko'yiga tushdi. Qizlarning so'ziga qarag'anda, Nazmi Qo'qon qishloqlarining biridan, chiroylik qiz ekan;

3) qahramonlarning o'zaro munosabatini yoritish jarayonida ham ma'nodosh leksemalarni qo'llagan. M.: Nasim bilan Anvar juda yaqin do'st, bir-birini onglag'uchi sirdosh o'rtoq edilar;

4) o'zbekona muomala madaniyatini izohlashda ham ma'nodosh sifatlarni ishlatgan. M.: Ammo Mohlar oyimning Anvar bilan muomalasi xolis va samimiy bo'lib, ul Anvarga o'z bolasidek mehribon...;

5) o'zbek tiliga xos belgini kuchaytirish ifodalarning ma'nodoshlaridan foydalangan. M.: Ro'yomolni menga berib o'rdaning ulug' darbozasiga qarab ketdi. Katta domlalar buni nima qilamiz endi, deb imom pochchamning oldig'a kelishti ekan-da, – dedi Mamatqul.

3. Agglyutinativ tillarda fe'l leksemalar o'z qatlamga mansubligi bilan ajralib turadi. Fe'l leksemalarning ifoda ko'lami quyidagicha:

1) qahramon vujudidagi holat o'zgarishini ifodalashda ham ma'nodoshlar qo'llagan. M.: – Ehtimol, – dedi Otabek va nima uchundir g'ayriixtiyoriy bir tebrandi. Uning yuzida bir o'zgarish va vujudida bir chayqalish bor edi;

2) o'zbek tilida eng ko'p ishlatiladigan ma'nodosh leksemalardan ham foydalangan. M.: – Bali, bali, – dedi Safar kulib va xotinig'a qarab qo'ydi. Safar bo'zchi Mamatqulg'a qarab iljaydi.

4. Ravish leksemalarning ifoda ko'lami quyidagicha: 1) o'zbek tilidagi miqdor bildiruvchi ma'nodoshlarni ishlatgan. M.: Anvar berilgan haqni olmay qaytarg'an chiqsa, darhol – "siz chaqani oz bergansiz-da, mo'lroq bersangiz, albatta olar edi. Bu kungi oshing durust, Nigor... Biroq go'shtni ko'b solibsan.

Antonim ma'nolari bir-biriga zid bo'lgan leksemalardir. Abdulla Qodiriy ona tilimizning boy xazinasidan ohoriy qarama-qarshi ma'noli leksik birliklarni tanlab, o'z o'rnida sinchkovlik bilan ishlatgan. So'z zargari qarama-qarshi ma'noli leksemalardan unumli foydalangan o'z asarida ohoriy tasvirlarni yaratishga harakat qilgan.

1. Ot leksemalarning ifoda ko'lami quyidagicha:

1) o'zbeklarning nutqidagi dalil keltirishni asoslash uchun zid ma'noli leksemalardan foydalangan. M.: – Jaholat kelsa, aql qochadir, qizim, – deb qo'ydi [4; 514-b.];

2) o'zbeklardagi er-xotinlik munosabatining qonuniy jihatlarni izohlashda ham qarama-qarshi ma'noli leksemalarni qo'llagan. M.: Chunki siz manim shar'iy rafiqamsiz – yaxshilik bilan-da va yomonlik

bilan-da men uni isbot qilishg'a hozirman;

3) o'zbek tildagi o'z va o'zlashma qatlamga tegishli zid ma'noli leksemalarni ishlatgan. M.: – Gap shunday bo'lsa, ikkimizning bu ishka ko'maklashuvimiz yoki sukut qilishimiz davlatxohliq (do'stlik) emas, dushmanlikdir, – dedi Og'acha oyim;

4) er-xotin o'rtasidagi nozik munosabatlarni ko'rsatishda ham qarama-qarshi ma'noli leksemalardan foydalangan. M.: Mendan – haddu-hisobsiz gunoh, sizdan kechirish ;

5) sevimli ayolning turmush o'rtog'iga bo'lgan samimiy erkalgini beqiyos zid ma'noli leksemalar orqali bergan. M.: – Siz, qochqoqsiz, – dedi. – Siz, quvloqsiz, – dedi;

6) tasvirida badiiy ifodalar ham qarama-qarshi ma'noli leksemalar bilan izohlangan. M.: ... “visol – muhabbatni o'ldirguchi, hajr esa – kamolatka erishdirguchidir” ;

7) kishilardagi manfiy va musbat munosabatlarga oid tushunchalarni zid ma'noli leksemalar vositasida sharhlagan. M.: Do'stlar shod, dushmanlar g'amgin, yavmi saodat (saodatli kunlar) yaqindir . Maxdum o'z ishida qancha pishiq bo'lsa ham, lekin do'st bilan dushmani ajratolmas...;

8) geografiyaga oid terminlarning o'z qatlamga tegishli muqobillarini topib zid ma'noli leksemalar orqali qo'llagan. M.: Havlining kunchiqarida kunbotishg'a qaratib soling'an, uncha maqtarlik bo'lmasa ham, ammo zamonasining olding'i binolaridan hisoblang'an bir ayvon bilan bir uyg'a ko'z tushadir ;

9) o'z qahramonlarning holatini vaziyatga mos shaklda ifodalashda ham qarama-qarshi ma'noli leksemalardan foydalangan. M.: Kulgi soati emas... – Kulgi soati bo'lmasa yig'i fursati ham emas, – dedi Anvar o'lturib [8; 572-b.] ;

10) jamiyatdagi tabaqalar o'rtasidagi ziddiyatni berishda ham zid ma'noli leksemalar vositasida bergan. M.: Anvar o'zini tabrik qilg'uchi ulamo va ashroflar yuzidan ochiq ravishda riyo, shaytanat va tama' o'qur, kambag'allardan sodda samimiyat ko'rar edi ;

11) o'zini juda zukko deb bilgan shaxslardagi ojiz tomonlarini izohlashda ham qarama-qarshi ma'noli leksemalarni ishlatgan. M.: Maxdum o'z ishida qancha pishiq bo'lsa ham, lekin do'st bilan dushmani ajratolmas, yana to'g'risi – necha yillik adovatlarni ikki og'iz shirin so'z yoki besh pul manfaat evaziga unutilib yuborg'uchi edi ;

12) feodal sinfiy tuzumdagi ijtimoiy farqlarni ham zid ma'noli leksemalar orqali bergan. M.: Garchi Nasimning otasi Qo'qonningg'ina emas, butun xonliqning tanilg'an kishilaridan va bu ikki bolaning sinfiy ayirmalqlari yer bilan ko'kcha, lekin yosh do'stlar buning farqig'a yetmaslar...;

13) millat dunyoqarashidagi kamtarlik va oddiylikni ham qarama-qarshi ma'noli leksemalar bilan bergan. M.: Nasim “xonning mirzaboshisining o'g'liman”, deb havolanmag'anidek, Anvar ham “Salim bo'yoqchining yatimi, Solih maxdumning asrandisiman” deb andisha qilmas edi .

Sifat leksemalarning ifoda ko'lami quyidagicha:

1) o'zbek millatiga xos ishonch ifodasini zid ma'noli leksemalar vositasida aks ettirgan. M.: Uzun so'zni qisqasi kampirning javobi: bir qizim emas, yuz qizim bo'lg'anda ham usta Alimga nazir tortdim – bo'libdur ;

2) millat orasidagi g'alamis, o'z manfaati uchun hech narsadan qaytmaydigan kimsalarning dunyoqarashini izohlashda qarama-qarshi ma'noli leksemalarni ishlatgan. M.: Nega desalaringiz, oq it bo'lmasa, qora it tovoq qoshiqqa tegmakda;

3) qahramonlar fikrlashidagi oddiylikni zid ma'noli leksemalar orqali ko'rsatgan. M.: – Ul-ku oson... – dedi. – Qiyini qaysi? ;

4) qahramonlari sajiyasidagi farqni berishda ham qarama-qarshi ma'noli leksemalardan foydalangan. M.: Kumushing o'zingga o'xshash serfikir ko'rinadir, Zaynab bo'lsa menga o'xshash quvnoq ;

5) o'zbeklarga xos mas'uliyatni asoslashda zid ma'noli leksemalarni ishlatgan. M.: Va'da berish oson, lekin uhdasi mashaqqat; bundan so'ng shuni ham xotirda yaxshi tutingiz;

6) voqealar rivojini asoslashda ham qarama-qarshi ma'noli leksemalarni qo'llagan. M.: Do'stlar shod, dushmanlar g'amgin, yavmi saodat (saodatli kunlar) yaqindir ;

7) o'z qahramonidagi xasislik illatini ko'rsatishda ham zid ma'noli leksemalar orqali izohlagan. M.: Shundog' ham bo'lsa, “tomog'i-ku, yengil, kiyimi og'irroq. Kiyimini opasining ustiga qo'ymabsizda” – dedi ;

8) munozarali masalalarni berishda ham qarama-qarshi ma'noli leksemalardan foydalangan. M.: – Balki Sultonaning qamalishi yolg'ondir, agar chin bo'lsa, inim bilan albatta kengashish kerak;

9) o'zbek ayollariga xos kinoyani aks ettirishda zid ma'noli leksemalarni ishlatgan. M.: Yangi yor topqanda, do'stlar, eskisidan kechmoq kerak ;

10) kundalik turmushda insonlar uchun zarur bo'lgan xislatlarning zarurligini ifodalashda qarama-qarshi ma'noli leksemalar orqali bergan. M.: – To'g'ri-da, mirzo Anvar, qo'li sust kosibdan oyog'i chaqqon gadoy yaxshi emish! ;

11) o'zbekona muloqotdagi ta'sirchan ifodalarni berishda ham zid ma'noli leksemalarni qo'llagan. M.: – Siz ham sovuqqa qotqanlardanmisiz! – deb kuldi Anvar. – Jon olov – jon er, deпти bir xotin... Gulxan o'tlik yigitning issiq quchog'i emish;

12) o'zbek pazandaligidagi nozik jihatlarni berishda qarama-qarshi ma'noli leksemalar orqali izohlangan. M.: Qutidorning tashqarisig'a er mehmonlar, ichkarisiga xotin mehmonlar to'lg'anlar, ular quyuq, suyuq oshlar, holva, nisholdalar bilan izzatlanadirlar ;

13) o'sha davrdagi ijtimoiy tanglikka aloqador jihatlarni ko'rsatishda ham zid ma'noli leksemalardan foydalangan. M.: Ya'ni Anvar tilab oling'an bola emas, dadasi bilan onasining tilaklariga qarshi, faqat ularning baxtsizlik va qashshoqliqlarig'a xizmat qilg'uchi bo'lib tug'ildi ;

14) yozuvchi adolat ilohiyotga aloqador tushuncha ekanligini tasdiqlash uchun ham qarama-qarshi ma'noli leksemalarni qo'llagan. M.: – Ammo Xudoning haqni nohaq qilmaslig'i soyasida bir maktub sababi bilan kutmagan joyda dor ostidan najotga chiqq'anlar ;

15) qahramonlarining tashqi ko'rinishi haqidagi holatlarni ham zid ma'noli leksemalar bilan ko'rsatgan. M.: – Nega Zaynab semizu Kumush ozg'in?! ;

16) qahramonlari suratidagi ayrichalikni ham qarama-qarshi ma'noli leksemalar orqali izohlagan. M.: Og'ir tabi'atlik, ulug' gavalik, ko'rkam va oq yuzlik, kelishgan qora ko'zlik, mutanosib qora qoshlik va endigina murti sabza urgan bir yigit (7-bet). M.: ... uzun bo'ylik, qora cho'tir yuzlik, chag'ir ko'zlik, chuvoq soqol, o'ttuz besh yoshlarda bo'lg'an ko'rimsiz bir kishi edi;

17) ijtimoiy hayotda g'ayir insonlarning boshqalarga qilgan g'animgini tasvirlashda ham zid ma'noli leksemalarni ishlatgan. M.: ... faqat siz iflosliq natijasida kulasiz, men... men to'g'riliq samarasini o'raman, siz iflos vijdon bilan g'olibsiz, men sof vijdon bilan mag'lubman... [8; 625-b.];

18) insonlar turmushiga xos muhim jihatlarni izohlashda qarama-qarshi ma'noli leksemalardan foydalangan. M.: Balki muhabbat, baxtlik kishilar uchun yaxshidir, lekin tajribamcha, baxtsiz kishi uchun badbaxtlikdir.

Ravish leksemalarning ifoda ko'lami quyidagicha:

1) qahramonlari fe'l-atvordagi o'zgachalikni ham zid ma'noli leksemalar orqali bergan. M.: ... o'zga hujralarda yengil tabi'atlik, serchaqchaq kishilar bo'lg'anida ...– ... bu hujraning egasi ham boshqacha yaratilishda: Og'ir tabi'atlik... ;

2) qahramonlarining ruhiy holatidagi o'zgarishlarni berishda ham qarama-qarshi ma'noli leksemalarni qo'llagan. M.: Ul bu gapni eshitar ekan borliq, yo'qliq – ishqilib allaqandoq qiziq bir holat kechirdi ;

3) insonlarni o'zaro munosabatda teng ko'rish holatini ham zid ma'noli leksemalar bilan izohlagan. M.: Birini past, birin baland qilma, bu xotining bo'lg'anda ul ham ko'z ochib ko'rganing... ;

4) kishilarning ruhiyatidagi o'zgarishni ham qarama-qarshi ma'noli leksemalar orqali bergan. M.: Ushbu keng dunyo ko'zimga bo'ldi tor ;

5) o'zbek millatining yashash tarziga tegishli holatlarni berishda ham zid ma'noli leksemalardan foydalangan. M.: Tashqarida bir qo'sha sozandalar dutor, tanbur, g'ijjak, rubob, nay va amsoli sozlar bilan dunyoga jon suvi sepib shaharning mashhur hofizlari ashula aytadirlar . Ichkarida xotinlar majlisi: onalarcha aytkanda, ular qum-tuproqdek ko'b, biroq majlisning borishida tartib yo'q, havli yuzi va uylar xotinlar bilan to'lg'an... [8; 51-b.];

6) insoniy munosabatlardagi chigallikni ifodalashda ham qarama-qarshi ma'noli leksemalarni ishlatgan. M.: Masalan siz agar chindan xotiningizga muhabbatsiz bo'lsangiz, o'zingiz ham iqror qilasiz: uyga kirsangiz xotiningiz bordek, ko'chaga chiqsangiz yo'qdek, bas, sizga xotinning og'irlik va yengilligi birdak.

Fe'l leksemalarning ifoda ko'lami quyidagicha:

1) qahramoni ruhiyatidagi o'zgarishni berishda ham zid ma'noli leksemalarni qo'llagan. M.: Kumushbibining sezilar-sezilmas kulimsirashidan yoqutdek lablari ostidagi sadafdek oq tishlari ko'rinib ketdi ersa-da, biroq uning bu holi tezlik bilan tundliqqa almashindi;

2) voqyelikka aloqador holatni ifodalashda ham qarama-qarshi ma'noli leksemalar bilan izohlagan. M.: – Xafa bo'lish emas, so'yindim, – dedi Kumush.

Xulosa tarzida shuni aytish mumkinki, Abdulla Qodiriydagi beqiyos talant sinonimlarni qo'llashda ham ko'rinadi. Yozuvchi ijod qilgan har bir lingvopoetik tasvirida sinonimlar yaqqol ko'zga tashlanib, bo'rtib turibdi. Adibning tasvir usulidagi yuqori jihatlardan biri bevosita antonimlar bilan

aloqadordir. Shu bois soʻz ustasi qoʻllagan antonimlarning lingvopoetik unsur sifatidagi oʻrni yuqori darajada namoyon boʻlgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Begmatov Ernest. Oʻzbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. – 40 b.
2. Lafasov U.P. Nutq tovushlari lingvopoetik vosita sifatida // Ilm-fan xabarnomasi. Science Bulletin. Вестник науки. – 2025. – Vol. 10, Issue 1. – B. 537–549.
3. Lafasov U.P. Okuzbeks, Their Language, Place in Society and Culture // Imgelem. – 2024. – Özbekistan Özel Sayısı. – P. 293–310. DOI: 10.53791/imgelem.1470929.
4. Hojiyev Azim. Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1974. – 3 b.
5. Lafasov U.P. Tasvirda surat va siyrat mutanosibligi // “Yazyk, kultura i obshchestvo na perekrestke sivilizatsiy” mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. – Toshkent–Tsukuba, 2008. – 17-mart. – 58–62-betlar.
6. Lafasov U.P. Til nazariyasi (Tilshunoslik). – Toshkent: TDSHU, 2023. – 41 b.
7. Shukurov Rashid. Oʻzbek tilida antonimlar. – Toshkent: Fan, 1977. – 16 b.
8. Navoiy Alisher. Qaro koʻzim. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1988. – 129 b.
9. Qodiriy Abdulla. Romanlar. Oʻtkan kunlar. Mehrobdan chayon. – Toshkent: Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1994. – 492 b.
10. Ismoilov I.A. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari. – Toshkent: Fan, 1966. – 11 b.